

IQTISODIYOT SOXALARIDA MUTAXASSISLAR TAYYORLASHNING TA'LIM, FAN VA ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASI

Umarova Dilnoza Oybek qizi

FarDTu "Iqtisodiyot" yo'nalishi 78-23 I guruh talabasi

Iqtisodiyot soxalarining istiqbolda kadrlar tayyorlashga buyurtmalarini shakllantirish, bitiruvchilarga qo'yiladigan malakaviy talablarni ishlab chiqish, tarmoqqa zarur bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash sifatini ta'minlash jarayonidagi ishtiroki talabga javob bermaydi. Oliy ta'lim dasturlarining o'zgaruvchan mehnat bozori talablariga hamohangligini ta'minlash uchun ish beruvchilar tomonidan tizimli ishlar amalga oshirilmayapti.

Hozirgi vaqtda yurtimiz iqtisodiyoti va uning ishlab chiqarish salohiyati jahon talablariga mos ravishda shakillanib bormoqda. Iqtisodiyot tarmoqlarini o'zaro integratsiyalash jahon talablariga mos ravishda faoliyat yurishning asosi hisoblanadi. Nafaqat iqtisodiy sohani balki ilm-fan va ta'limni ham bevosita iqtisodiyotimiz ishlab chiqarish salohiyatimiz bilan bog'liq holatda amalga oshirish uni jahon talablarga mos ravishda shakillantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi kunda integratsiya atamasi jahonda turli sohalarni, masalan, ijtimoiy, mintaqaviy, iqtisodiy, diniy, irqiy, tashkiliy integratsiya kabi sohalarni qamrab oladigan ijtimoiy tushuncha sifatida ishlatilmoqda.

Ta'lim, fan va ishlab chiqarishni integratsiyalash muammosi asosiy shartdir muhandislik mutaxassislarni yuqori sifatli tayyorlash va ichki iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlash urushdan oldingi davrda bo'lgani kabi bugungi kunda ham dolzarbdir[1]. Muammoning dolzarbligi doimiydir.

Oliy ta'lim – ilm-fan – ishlab chiqarish o'rtasida uzilishlar mavjud, integratsiya ta'minlanmagan. Ilmiy-tadqiqot institutlari oliy ta'limda kadrlar tayyorlash jarayoniga zarur darajada jalb etilmagan, ularda ilmiy izlanishlar iqtisodiyot soxalarining real ehtiyojlaridan kelib chiqmasdan amalga oshirilmoqda. Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarning tizimli tayyorlanmasligi oliy ta'lim muassasalari ilmiy salohiyatining pasayishiga olib kelmoqda.


"Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonida² Iqtisodiyot tarmoqlari

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.10.2020 yildagi PF-6097-son. <https://lex.uz/docs/-5073447>

va ijtimoiy sohani jadal rivojlantirish, ilmiy-intellektual hamda moliyaviy resurslarni to'liq safarbar etgan holda ilmiy-innovatsion salohiyatdan keng foydalanish, istiqbolda ilm-fanni muntazam isloh qilib borishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilimga ega va mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ilmiy infratuzilmani modernizatsiya qilish ishlarini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish maqsadida ustuvor yo'nalishlar belgilangan. Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining maqsadli ko'rsatkichlari va indikatorlari Ilm-fanga ajratilgan mablag'larning yalpi ichki mahsulotga nisbatan ulushini 2030 yilga qadar 20 foizga yetkazish maqsad qilingan.

Xorijiy ekspertlar guruhi tomonidan taklif etilgan tavsiyalarni inobatga olgan holda oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish orqali respublika oliy ta'lim tizimida yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning mazmunini mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollari, jamiyat ehtiyojlari, ilm-fan, madaniyat, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda tubdan takomillashtirish belgilangan.

OTMlarda o'qituvchilarining yoshi bo'yicha taqsimoti³




2030 yilga qadar 39 yoshgacha bo'lgan tadqiqotchilarning umumiy sonida yuqori malakali ilmiy xodimlarning (fan nomzodi, falsafa doktori, fan doktori) ulushini 30 foizga, xorijiy ilmiy tashkilot va universitetlarga ilmiy stajirovkaga yuborilgan tadqiqotchilarning umumiy sonida 39 yoshgacha bo'lgan tadqiqotchilarning ulushi 70 foizga, Ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar sohasidagi innovatsion mahsulotlar (tovarlar, ishlar va xizmatlar) hajmida innovatsion tovar, ishlar va xizmatlarning yangi sotuv bozorlari ulushini 15 foizga etkazish ko'zda tutulgan.

³ <https://stat.edu.uz/teachers>

Mamlakatimizning iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarini raqobatbardosh kadrlar bilan ta'minlash masalalarini tubdan o'zgartirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish, respublikamiz hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali kadrlarni o'z vaqtida zarur ixtisosliklar bo'yicha iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari ehtiyojidan kelib chiqqan holda tayyorlash, oliy ta'lim mazmunini korxonalarining ishlab chiqarish munosabatlariga va istiqbolli rivojlanish dasturlariga muvofiq shakllantirish, bitiruvchilarni mutaxassisligi bo'yicha ishga joylashtirish maqsadida "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror qabul qilindi.

OTM larda ilmiy salohiyatga ega bo'lgan professor-o'qituvchilar ulushi (%)foizda⁴



Iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarini oliy ta'lim tizimidagi kadrlar tayyorlash jarayoniga keng jalb etish, ularning ta'lim muassasalari bilan samarali hamkorligini ta'minlash uchun O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, Bosh vazirning o'rinbosarlari – kompleks rahbarlari, mutasaddi rahbarlar tarmoq(soha)lar bo'yicha tegishligiga ko'ra oliy ta'lim muassasalariga biriktirilgan.

Qarorga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining komplekslari rahbarlari, tegishli vazirliklar va idoralar rahbarlari zimmasiga kadrlar buyurtmachilari va oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda mutaxassislar tayyorlash mazmuni, bitiruvchilarning bilim va ko'nikmasiga qo'yiladigan talablarni belgilovchi oliy ta'lim yo'nalishlari malakaviy talablari, o'quv rejalari va dasturlarini soha ehtiyojidan kelib chiqib, yangidan ishlab chiqish va tasdiqlash, ishlab chiqarish stajirovkalarini joriy etish, eng ilg'or xorij tajribasiga tayangan holda o'quv adabiyotlari, o'quv-metodik

⁴ <https://stat.edu.uz/teachers>

komplekslarini ishlab chiqish va joriy etish, istiqbolli yosh pedagoglar va doktorantlarni yetakchi xorijiy ta'lim muassasalariga stajirovkaga yuborish, ular uchun maxsus stipendiyalar ajratish kabi vazifalar yuklatilgan.

Qaror komplekslar tarkibidagi vazirliklar va idoralar bilan birgalikda tegishli tarmoq (soha) hamda hududlarning joriy va istiqbolli rivojlanish dasturlarini hisobga olib, oliy malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojni yillar kesimida aniq balans beradigan hisob-kitoblar asosida ishlab chiqishni nazarda tutadi. Shu bilan birga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning ko'lami bugungi kun bitiruvchilaridan ushbu ijobiy o'zgarishlarda faol ishtirok etishni talab qilmoqda. Bu, o'z navbatida, ularning bilim va malakalari darajasiga muayyan, jiddiy talablarni qo'yimoqda.

Asosiy masalalardan biri sifatida ishlab chiqarish, ilm-fan va ta'lim o'rtasida integratsiyani chuqurlashtirishga yo'naltirilgan islohotlar ta'kidlab o'tilgan. Ushbu islohotlar oliy ta'lim tizimidagi ilmiy salohiyatni oshirishga yo'naltirilgan bo'lib, yosh olimlar va tadqiqotchilarni tizimli tayyorlash masalalari bilan chambarchas bog'liq[2].

Kompleks rahbari, tegishli vazirlik va idora rahbari biriktirilgan har bir oliy ta'lim muassasasining professor-o'qituvchilari va talabalari bilan tarmoqqa (sohaga) oid yangiliklar, istiqbollarni belgilab olish, ta'lim mazmunini takomillashtirish kabi masalalar muhokamasini kamida oyda bir marta o'tkazishi ta'lim tizimini tubdan takomillashtirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Ijtimoiy sohada yosh olimlar, izlanuvchilar va doktorantlar uchun keng imkoniyatlar yaratish ham qarorda o'z ifodasini topgan bo'lib, unda amaliyotga tatbiq etilgan ish mualliflarini, ixtiro egalarini moddiy rag'batlantirish nazarda tutilgan.

Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining mehnat bozorida talabgorligi va professor-o'qituvchilarining ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari amaliyotga joriy etilishi samaradorligiga e'tibor qaratilgan bo'lib, bunda milliy reyting tizimida yuqori ko'rsatkichlarni qayd etgan oliy ta'lim muassasalariga o'quv jarayonining alohida me'yoriy-huquqiy hujjatlarini mustaqil ishlab chiqish va tasdiqlashda akademik erkinlik berilishi nazarda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori respublika oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish, iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining yuqori malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlash, ilmiy-pedagogik salohiyatni oshirish, ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasida integratsiyani ta'minlash, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish uchun yo'naltirilgan yana bir muhim amaliy sa'y-harakatlardan[3].

O'zbekistonda oliy ta'limning jahon platformasiga integratsiyalashuvi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan asosiy qonunchilik loyihalari bilan ta'limni huquqiy, ko'p bosqichli rivojlantirishni taqozo etadi. Globallashuv sharoitida integratsiyani yo'lga qo'yish jarayonida ta'lim tizimining ham sub'ekti, ham ob'ekti bo'lgan ta'limning barcha bosqichlarini modernizatsiya qilish ta'lim tizimining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi.

XULOSA. Mamlakatimizda ta'lim sifatini oshirishda fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini asosiy omil sifatida foydalanishga e'tibor kuchaydi. Shuning uchun kadrlar tayyorlash sifatini oshirish va unda fan, talim va ishlab chiqarish integratsiyasining roli, uning xalqaro tajribasini o'rganish hamda ilg'or xorijiy tajribadan foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb masalaga aylanmoqda. Fan va ishlab chiqarishning integratsiyasi hamda o'zaro hamkorligi masalasini tadqiq etish xorijiy olimlar tomonidan o'rganilib kelinmoqda. Lekin ular tadqiqotlari bilan tanishish mazkur masalaga turli yondoshuv va qarashlar mavjudligini kursatadi. Moddiy mahsulotdan farqli ravishda oliy ta'limda kadrlar tayyorlash jarayoni va uning sifatini aniqlash juda ko'p o'ziga xos xususiyatlarga ega. Kadrlar tayyorlash va uning sifatini oshirish masalalarini tadqiq etgan mahalliy hamda xorijiy olimlar asosan mavzuga sotsiologik va pedagogik nuqtai-nazardan yondoshganlar. Fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi va uning ta'lim sifati hamda mehnat bozori talabiga moslashuvchan kadr tayyorlashdagi roli va uning samaradorligini oshirishda iqtisodiy-huquqiy mexanizmlardan foydalanish masalalari o'rganilmagan. Oliy ta'limda fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasining ta'lim sifatiga t'sirini baholash va ushbu

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. James, Paul. Urban Sustainability in Theory and Practice: Circles of Sustainability. London: Routledge, 2015 — 53 bet. 29-yanvar 2018-yilda qaraldi.
2. Berkinov O.T. (2022). Ijtimoiy tarmoq: yoshlar va "kelajak" // NamDU ilmiy Axborotnomasi, 3-son, -B.181-187.
3. Yo'ldoshev, A. (2022). Ta'limga e'tibor - kelajakka e'tibor. Barqaror rivojlanishda uzluksiz ta'lim: muammo va yechimlar xalqaro ilmiy-amaliy anjumani.